

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIK
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA O'QITISH METODIKASI

KAFEDRASI



**MAVZU: O'SMIR VA O'SPirin YOSHIDAGI SHAXSLARGA XOS SALBIY
XUSUSIYATLAR**

BAJARDI: 210 guruh talabasi Botirova S

TEKSHIRDI: Boboqulov Z

SAMARQAND – 2016

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
	ASOSIY QISM.....	5
I.	O'SMIRLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	5
II.	O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI.....	10
III.	O'SMIRLIK YOSHIDA ME'YORDAN OG'ISHLIK (DEVIATSIYA) HOLATLARI	13
IV.	O'SPIRINLIKNING JISMONIY TARAQQIYOTI.....	19
V.	O'SPIRINLIK DAVRIDA AQLIY RIVOJLANISH.....	23
	Xulosa.....	31
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	33

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Davlatimiz kelajagi ham, rivojlangan mamlakatlar orasida tutgan mavqeyi va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, aql-zakovati, vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi hamda mas’uliyatini teran anglashi, bugungi avlodga bog’liqdir. Shu bois yurtimizda jamiyatning asosini tashkil etadigan, uning eng muhim bo’g’ini bo’lgan oilaga alohida e’tibor berilishi bejiz emas, albatta.

Yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan 2010 yil «Barkamol avlod» yili deb e’lon qilinishi, o’sib kelayotgan yosh avlod haqida g’amxo’rlik respublikamizning asosiy maqsadiga aylanganligini yana bir bor tasdiqlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida fuqarolarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usining qaror topganligi, o‘tmish qadriyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o‘rni va rolini xolisona baholash imkonini berdi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bayon etadi: «Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O‘zbekistonning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilaning, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarining omon-esonligi to‘g‘risida g’amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir».

Har qanday jamiyatda jismoniy, psixik yoki ijtimoiy rivojlanishida nuqsoni mavjud insonlar uchraydi va ular doimo alohida guruhga mansub bo‘lib ajralib turadi. Biroq bu toifadagi insonlarga jamiyatning tarixiy-madaniy sharoitiga muvofiq turli davrlarda turlicha munosabatda bo‘lib kelingan. Masalan, qadimgi Spartada xasta, jismoniy nosog‘lom bolalarni qoyadan uloqtirganlar. Boshqa jamiyatlarda esa bunday toifadagi insonlarga mehribonlik va g’amxo‘rlik ko‘rsatilgan.

Hozirgi davrda AQSH va qator Evropa mamlakatlarida nosog‘lom insonlarga barcha qatori, odatiy teng huquqli munosabatda bo‘linadi. Ularga jamiyatning teng

huquqli a'zosi sifatida qarab, bu insonlarni muammoli yoki imkoniyati cheklangan shaxs sifatida alohida maxsus e'tibor beriladi.

Bir qator tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, inson odobli yoki odobsiz, olijanob yoki egoist, jinoyatchi yoki sog'lom xulqli bo'lib tug'ilmaydi. SHaxsdagi u yoki bu xildagi xususiyatlar va ustanovkalar kishining ijtimoiy hayot faoliyati, uni qurshab olgan ob'ektiv shart-sharoitlar va voqea-hoditsalar ta'sirida vujudga keladi. Ushbu shart-sharoitlar va ob'ektiv munosabatlar xarakteri individning shaxs sifatida shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning maqsad va vazifalari: O'smir va o'spirinlik yoshdagi shaxslarga xos salbiy xususiyatlarni turli adabiyotlardan tahlil qilish va xulosa qilishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalarni quydim.**

- o'smirlarning psixologik xususiyatlarini o'rganish;
- o'smirlik davrida shaxsning shakllanishi;
- o'smirlik yoshida me'yordan og'ishlik (deviatsiya) holatlari;
- o'spirinlikning jismoniy taraqqiyoti;
- o'spirinlik davrida aqliy rivojlanishini adabiyotlardan tahlil qilishdan iborat

Kurs ishi hajmi va tuzilishi: Kurs ishi kirish, 5 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

I. O'SMIRLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, xayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balogatga yetish davri bo'lib, yangi xislar, sezgilar va jinsiy xayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi.

Bular ta'sirida o'smirning xarakteri, atrofdagi kishilar bilan muomalasi, jamiyatda sodir bulayotgan voqealarga munosabati tez o'zgarib boradi. Ba'zan ijtimoiy masalalar tugrisida notugri tasavvur va yanglish fikrlar xosil bulishi tufayli u muayan tartib-koidalarga tankidiy kuz bilan qaraydi.

O'smirda psixik jarayonlarning kyeskin uzgarishi bilan aqliy faoliyatida xam burishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, ukuvchi bilan ukituvchi mulokotida, kattalar bilan O'smirlarning muomalasida kathiy uzgarishlar jarayonida kiyinchiliklar paydo buladi. Bular avvalo tahlim jarayonida ruy byeradi: yangi axborot, mahlumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari O'smirni qoniqtirmay kuyadi.

Odobli, dilkash O'smir kutilmaganda kaysar, intisomsiz, kupol, syerzarda bulib koldi. O'smir xulkidagi bunday uzgarishlar tajribasiz ukituvchi va ota-onasini qattiq tashvishga soladi.

Xush, O'smirlarning psixik utishini xarakatga kyeltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik usishini xarakatga kyeltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga kyeltirgan yangi extiyojlar bilan ularni kondirish imkoniyatlari urtasidagi karama-karshiliklar tizimining namoyon bulishidir. Vujudga kyelgan ziddiyatlarni psixologik kamolotni tahminlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orkali O'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarini tarkib toptirish bilan asta-syekin yukotish mumkin.

Xozirgi O'smirlar utmishdoshlariga nisbatan jismoniy akliy va siyosiy jixatdan bir muncha ustinlikka ega. Ularda jinsiy yetishish, ijtimoiylashuv jarayoni,

psixik usish oldinrok namoyon bulmokda. 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha O'smirlik davri xisoblanadi.

O'smirda ruy byeradigan biologik-jismoniy uzgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuktasi vujudga kyeladi. Buyga usish bir tyekis bormaydi: kiz-bolalar 5-7 sm o'ssalar, o'gil bolalar 5-10 sm usadilar. Buyiga karab usish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtka kismining kattalashishi xisobiga ruy byeradi.

Ogiz bushligi va xalkumdagi uzgarishlar okibatida tovush tyembri xam uzgaradi. Bu ugil bolalarda kiz bolalarga nisbatan kuprok darajada sodir buladi. Ugil bolalarning tovushi vazminrok bulib koladi, durillaydi.

Garchi bu davrda mushaklar tyez surhat bilan ussa xam, mustaxkamlashsa xam, lyekin baribir oyok va kul suyaklarining usish surhati orkada koladi. O'smirlarda bu xususiyat ularning byesunakay xatti-xarakatlarida, yurish-turishlaridagi kupollikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab buladi.

Kukrak kafasi xam gavdaning buyga usishiga nisbatan syekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim O'smirlarning yelkasi, kukragi tor bulib koladi, bu esa uz navbatida kislorod yetishmasligiga, nafas kisishiga olib kyeladi. Kislorod yetishmasligi natijasida ruxiy faoliyatga putur yetadi. Bu davrda yurak kyengayishi bilan kon tomirlari xam yugonlashadi. Kon aylashish sistyemasining kayta kurulishi, vyegyeyativ nyerv sistyemasidagi barkarorlik kon aylanishini buzadi va O'smirda bahzi kon bosimining ortishi ruy byeradi.

Bu davrda ayniksa jinsiy byezlar faoliyati kuchayadi. Goxo O'smirlar orasida axlokan tubanlashuv xollari ruy byerishi mumkin. Ijtimoiy xayotda yaramas odatlarni kyeltirib chikaruvchi anchagina sabablar bor: birinchidan kinozallari va tyelyevidyeniyadan O'smirlarga tugri kyelmaydigan filmlarni kursatilishi, ikkinchidan, jamoat joylarida kattalarining nojoiz xarakatlarni kursatishlari, uchinchidan, tahlimda biologik usish tugrisida yetarli bilimlar byerilmasligi, turtinchidan ota-onalarda fiziologik va psixologik bilimlar yetishmasligi va xokozalar.

O'smir uzining kobiliyati va kuchini tugri baxolamay turib, murakkab xayotiy masalalarni xal kilishga urinadi, ammo fikr yuritish kobiliyati yuzaki bulganligi sababli kundalik xayotida kator kamchiliklarga yul kuyadi. Lyekin u uz xotosini tan olishdan kura kattalar bilan baxslashishni afzal kuradi. Tankid kilgan kishilarni yoktirmaydi, xar bir tankid guyoki uni myensimaslik byelgisi, atayin kilinayotgan ish bulib kurinadi. Buning natijasida O'smirning psixik faoliyatida salbiy uzgarishlar yuzaga kyeladi. U mustakil, uzboshimchalik bilan ish tutishga urinadi, kattalarning maslaxatiga ehtibor byermaydi. Ayrim O'smirlar uzining kattalar safiga kushilganligini namoyish kilish uchun turli xil odatlarga urgana boshlaydilar. Ota-onalar va pyedagoglar O'smirlar bilan aloxida ishlab, ularning kunglini topishi va xatti –xarakatlarini uz vaktida tugri yulga solishlari lozim.

O'smirlik yoshi dunyokarash, ehtikod, prinsip, uzligini anglash, baxolash kabilar shakllanadigan davr xisoblanadi. O'smir uz faoliyatini muayyan prinsip, ehtikod va shaxsiy nuktai nazari asosida tashkil kila boshlaydi.

O'smir shaxsini tarkib topshirishda uning atrof muxitga, ijtimoiy xodisalarga, kishilarga munosabatini xisobga olish lozim.

Psixologlar utkazgan tadkikotlardan kurinadiki, O'smirlarning kupchiligini kathiyatlilik, kamtarlik, magrurlik, samimiylik, dilkashlik kabi mahnaviy, axlokiy tushunchalarni tugri anglaydi. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barkaror ehtikodiy va ilmiy dunyokarash tarkib topadi, shular zamirida axlokiy idyeallar yuzaga kyela boshlaydi.

O'smir ugil-kizlar shaxsining kamol topishida uzini anglash jarayonida uziga baxo byerish mayli va istagi uzini boshka shaxslar bilan takkoslash, uziga bino kuyish extiyoji paydo buladi. Bular esa O'smirning psixik dunyosiga akliy faoliyatiga, tyevarak-atrofga munosabatning shakllanishiga tahsir kiladi.

O'smirlik yoshida psixologik jixatdan eng muxim xislat - voyaga yetish yoki kattalik xissining paydo bulishi aloxida axamiyatga ega. Kattalik xissi ijtimoiy-axlokiy soxada, akliy faoliyatda, kizikishda, munosabatda, kungil olish jarayonida, xulk-atvorning tashki shakllarida uz ifodasini topadi. O'smir uz kuchi va kuvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kyengayayotganini anglay boshlaydi.

O'smirlik davri xususiyatlarini talkin kilgan P.I.Lyevyentuyev, D.B.Elkonin, T.V.Dragunovning tahkidlashicha, ugil va kizlarning bu yoshda urtoklari bilan munosabatlarga intilishi, tyengdoshlari jamoasining xayotiga kizikishi yerkin namoyon buladi.

O'smirlarning jismoniy usishi va jinsiy yetilishi ularning psixikasida kyeskin uzgarishlarni vujudga kyeltiradi. Ukuv fanlarning kupayishi, axborotlar. mahlumotlar tarmogining kyengayishi ularning fikr yuritishini shakllantiradi.

O'smir ukuvchilar urganayotgan fan asoslari ularning mavxum tafakkurini ustirishga karatiladi. Ularning akliy faoliyati xususiyatlaridan biri - mavxum tafakkurining rivojlanishidir. Maktab tahlimini va mustakil bilim olish faoliyati tahsiri ostida O'smirda analitik-sintyetik faoliyat jadal surhat bilan rivojlana boshlaydi.

O'smirning eng muxim xususiyatlardan yana biri mustakil fikrlash, aklning tankidiyligi tyez rivojlanishidir. Bu esa O'smirning akliy faoliyatida yangi davr boshlanganini birdiradi. Aklning tankidiyligi ayrim xollarda ukituvchi bilan ukuvchi urtasida «anglashilmovchilik govi»ni vujudga kyeltiradi. Aklning tankidiyligi O'smirning asosiy xususiyatlaridan biri bulib, uzgalar muloxozasidan, darslikdan xato va kamchiliklar topishga, uz gapida turib, ayrim fikrlarga kathy ehtikoz bildirishga urinib va baxslashishiga moyil buladilar. Tafakkurning mustakilligi inson uchun katta axamiyatga ega. Ukituvchi dars jarayonida va darslardan tashkari vaktlarda, xar kanday ogir shart-sharoitlarda xam turli usullar bilan bu xislatni kullab kuvvatlashi, uning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishi kerak.

O'smirlik krizisi Bu davrga kyelib bola organizmi jadillik bilan va nomuttanosib usadi. Bu usish bahzan bolaning uziga yemonrok xis kilishga va ayrim fiziologik kasalliklarni kyelib chikarishga sabab bulishi mumkin. Bu xolatlarning barchasi bolani tashvishga soladi va uning asabiylashiga olib kyeladi. Uzini katta bulib uzgartirayetganini xis kilgan O'smirda endi kattalar xayeti bilan yashash extiyeji yuzaga kyela boshlaydi. O'smir uzini kattalardyek tutishga katta bulib kolganini kursatishga xarakat kila boshlaydi. Juda kupgina O'smirlar bu

davrda chyekish xamda spirtli ichimliklarga kizikib koladilar. Katta odam chyekuvchi ichuvchi singari yangi rolda uzini normal yaxshi xis kilmagan O'smir juda kattik tashvishga tushadi va undan krizis xolati yuzaga kyeladi. Shuningdyek bu krizis O'smirning mahnaviy usishi shuning psixikasidagi uzgarishlar bilan xam boglikdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavkeyi uzgaradi uzining yakinlari dustlari tyengdoshlari bilan yangi munosobatlar yuzaga kyeladi . Lyekin eng katta uzgarish uning ichki dunyesida yuzaga kyeladi O'smirda aks xollarda uziga konikmaslik xolati kuzatiladi. Uzi xakidagi mavjud fiklarning bugun undan sodir bulayetgan uzgarishlarga tugri kyelmayetganligi O'smirni ikkinchi tomondan tashvishlantirib asabiylashiga sabab buladi. Bu esa bolada uzi xakida salbiy fikr va kurkuvni yuzaga keltirishi mumkin. Bahzi O'smirlarni nima uchun atrofdagilar kattalar kupincha ota onasiga kmrisha chikayetganin anglay olmayetganligini tashvishga soladi. Bu xolat xam uzlarini ichidan asabiylashishlariga sabab buladi. Kattalarning bu davrdagi eng asosiy vazifalari O'smirning muammosini tugri anglashi va erkin tugri yashashiga yordam berishidair.

II. O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI

Jinsiy yetilishi o'smirning bu yeshdagi xulq atvoriga asosiy biologik vosita sifatida tahsir utkazadi. Lekin bu bevosita ta'sirdir. Sosial omillar esa quyidagilardir: kichik maktab yeshdan urta maktabga utish yahni yakka ukituvchi raxbarligidan kupchilik ukituvchilar tasarufiga utish va mulokotdagi uzgarishlar ijtimoiy foydali ishlarni kyengaytirib borish mustakil va amaliy ishlarni kuprok bajarish shu bilan birga bolani oiladagi urni xam uzgaradi. Ushbu uzgarishlar tahsirida bolalar jismoniy va akliy imkoniyatlarini usib borishi munosobati bilan uzlariga kuprok ishona boshlaydilar, u endi oilaviy muammolar muxokamasida xam kashkasha boshlaydi. Katta O'smirlarga nisbatan kichik O'smirlarda paydo buladigan kyelisha olmaslikni ulardagi jinsiy yetilishiga emas balki atrofdagi shart sharoitlar oiladagi ota-ona, aka-ukalarning unga munosobati maxola kuy yahni sosial sharoitlar tahsiri bilan boglash zarur.

Shu sosial sharoit ijtimoiy va ulardagi psixologik iklimni uzgartirish bilan kichik O'smirdagi yemon xulk atvor uzarlik kamchiliklarini tan olmaslik kabi tabiy xislatlarni oldini olish mumkin.

Ba'zi o'qituvchilar kichik O'smirdagi bu uzgarishlar urushkoklik va salbiy alomatlar ujarliklarining ildizlari kayerdan kyelib chikadigan va nimani boglanganligi nimani tahsiri ekanligi bilmay turib notugr tashxis va xulosalar kyeltirib chikaradilar va bu aksariyat xolda fojiaga olib kyelishi mumkin.

Aslida esa bu O'smir yeki maktab yeshdagi bolalarning psixik xolatlarini va psixik rivojlanayetganliklarini xisobga olish va psixik muammolarini yechish erkin va tugri yechimlar uchun yerdam byerish ularni akliy kobiliyatlarini rivojlantiruvchi myetodlar yerdamida ularga psixologik yendashish zarur va muximdair. Kichik O'smir yeshdagilar bilan ishlayetganda ukuvchini xar bir tashki va ichki ryeaksiyasi ortida uning uz psixologik sabablari borligini bilish muximdir. Bu "madaniyatsiz" "zararli" "tushunib bulmaydigan" dyeb nom olgan xatti xarakatlar bir karashda shunday baxolanadi lyekin bu xatti xarakatlar shaxs karor topishi maxsus boskichi uchun xos xususiyatdir. Kchik O'smir psixologik "myexanizimi" sxyematik ravishdv kuyidagicha baxolanadi. Endokrin garmonlarini paydo bulishi

va ularning markaziy nerf sistyemasiga tahsir kilishi bilan bogshlik bulgan jinsiy yetilishning boshlanishi bolalarning aktivligini jismoniy va psixologik imkoniyatlarini oshiradi xamda bolada uzini kattalardyek xis etish mustakil bulish tuygularini tuyush uchun kulay shart sharoitlarni olib kyeltirad. Birok psixik rivojlanishni bu boskichda xam bola xali mustakil xarakat kilishga tula tayer bulmaydi. Asosiy ziddiyatni kyeltirib chikaruvchi omillardan biri uz mustakilligini imkoniyatidan ortik darajada baxolashdir. Uz imkoniyatlarini ortikcha baxolash bilan kichik O'smirni psixik imkoniyatlari urtasida tasovud paydo buladi. Bu ziddiyatni xal etilishi kanday sodir buladi va u bolani tashki kurinishi xulk atvorida kanday namoyen buladi?

Ma'lumki xar bir bolaning munosobatlari anik ishlarda kurinadi mustaxkamlanadi va kayd etiladi. Bola uzidagi mustakillikni shakllantirish uchun uzi mustakil ishlarni bajarishga tugri kyeladi. Lyekin ikkinchi tomondan bir marta mustakil ish bajarish uchun istyemoliy shart sharoitlardan xoli bulishga xarakat kiladi. Lyekin mustakil xarakat kilish uchun bola boshka myexanizmlarga ega emas. Bular O'smirni uz kuchiga ichki bir ishonchni mavjud emasligi uz oldida turgan va uning uning natijasini anik tassavur eta olmaslik kabi alomatlaridir. Bu byelgilar mana shu yeshda kishini mustakil xarakat kilishga kodir bulishga ayni xollarda tyevarak atrofdagi kishilarga karshi borib uzini xak ekanligini kattik turib ximoya kilishga boshka xollarda esa vaziyatni vazminlik bilan kabul kilishga davat etadi. Kichik O'smirda uz-uzini xurmat kilish va uzini anglashni shakllantirishni bir kancha yullari mavjud. Masalan: bu davrda kattadarga taklid kilish yeki oilada uz xurmatini talab kilish uz suzini utkazish uzini xurmatli obruyli katta yeshli kishini obraziga uxshatib rivojlatirish kuchli buladi. Ularag biror suz yeki tanyex bilan murojat kilsangiz u uzini mustakil fikrlay olishi va biror ishni albatta udasidan chika oladigandyek kursatadi. Vaxolanki xali O'smirni psixologik imkoniyatlari yetarli emas yeki rivojlanmagan kattalar ukituvchilar O'smirdagi bu jarayenni psixologik nukta nazaridan baxolay olishimiz unga soxta pyedogogik yuzaki yendashmay aksincha unga uz imkoniyatlarini ustirishga uz ichki va tashki kobiliyatlarini rivojlantirishda yunaltirishimiz muxim. O'smir yeshdagi bolani

birinchi galda intiladigan narsani u uzini endi kichkina bola emas katta bulib kolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iborat. Bu yeshda kttalar O'smirlarni bilib bilmay kuyayetgan kamchilik va xatolarini kupchilik ichida uyaltirib kamsitib koralab emas yualki psixologik yul bilan yendashgan xolda yerdam byerish uni "katta bulib kolganlik" tuygusini sundurib emas balki katta odam kanday bulishi va kanlay talablarga javob byerishi kyerakligini anglatish zarur. Dyemak bu O'smirni tulakonli psixik rivojlanishi uchun zarur bulgan xayetiy bir xislat ekanligini bilgan xolda shu bilan boglik salbiy ishlarni psixologik tabiatini tugri tushunmogi va bolalarni uzlarini katta utishlariga tuskinlik kilmaslik aksincha ularning bunday xatti xarakatlarini ijobiy yuzaga solish uchun intilishi kyerak. O'smirlarni uz tyengdoshlari bilan mulokotda bulishi goyat katta axamiyatga egadir.

Uz tyengdoshlari bilan tyenglik asosida kilingan muammolar munosabat asosida O'smir aloxida bir ijtimoiy munosabatlar maktabini utaydi. Uzaro kizikishlar atrof dunyeni bir birlarini birgalikda anglashlari va tushuntirishlari ular uchun juda kimmatlidir. O'smirlar uchun uy vazifalari uy ishlari buyicha majburichtlarni bajarishga karaganda tyengdoshlari bilan mulokot kilish muximrokdir. Uz ishlari sirlarini bola endi ota onasiga emas balki tyengdoshiga kuprok ishonadi. U endi salbiy va ijobiy tomonlariga aloxida bir urgu byermagan xolda uzi xoxlagan kishisi bilan dust bulish xukukini talab etadi. Uz tyengdoshlari bilan mulokot va munosabat jarayenida uz shaxsini erkinlik bilan tula nomoyen eta oladi. Ana shu shaxsiy erkinlikni u katta bulishi xuukki dyeby anglaydi. Ota onalarning O'smirga shu erkinlikning byermasligi yeki O'smirning shunday dyeby bilishi natijasida ular ota-onaga karshi pozisiyada buladilar. Shuni aloxida takidlash lozimki ana shu mulokot va munosabat asosida O'smirlarda gurur xissi shakllana boshlaydi. Albatta gurur norma va koidalari kattalardan urganiladi lyekin uz gururini kanday ximoya kilishi O'smirlarining aloxida nazoratida buladi. Ular orasida sodiklik va tugrilik kabi xislatlar yukori baxolanib sotkinlik uz suzida byevafolik turmaslik egoizm kizgonchiklik kattik koralanadi va kattik jazolanadi.

III. O‘SMIRLIK YOSHIDA ME‘YORDAN OG‘ISHLIK (DEVIATSIYA) HOLATLARI

Psixologiyada o‘smirlik davri o‘tish bosqichi deb qaraladi. YOsh davrlari psixologiyasida o‘tish bosqichi eng qiyin va murakkab davrdir. O‘sh bosqichida bolalikdan kattalikka, bola xarakteridan, etuk inson bo‘lib shakllanadigan o‘ziga xos jarayonlar davriga o‘tiladi.

O‘smirlik yoshida bolaning hayoti va faoliyati jiddiy o‘zgaradi va uning psixikasi qayta shakllanadi; tengdoshlari bilan munosabatlarining yangi shakllari vujudga keladi. O‘smirning jamiyatdagi mavqei, jamoadagi o‘rni, holati almashinadi, unga kattalar yuqoriroq talablar qo‘ya boshlaydilar. Bu yosh davrida jinsiy etilish faollashadi, biroq ijtimoiy shakllanish orqada qoladi. Bu esa jinsiy tarbiyada ijtimoiy-psixologik muammolarni vujudga keltiradi.

O‘smirlik yoshida bolada o‘z-o‘zini anglashga ehtiyoj paydo bo‘ladi. “Men kimman?”- degan savolga javob izlaydi. Bolada shaxsiy qarash, mulohaza yuritish, o‘z bahosini berish kabi xususiyatlar shakllanadi. Bu yoshda vaqtinchalik oila va maktabdan psixologik uzoqlashish holatlari ko‘payadi. O‘smir shaxsining shakllanishida tengdoshlarining ta‘siri kuchayadi; o‘zini erkin sezadi, uni hurmat qiladigan muhitni ko‘proq xush ko‘radi.

Bu yoshda o‘smirlarning kattalar, ayniqsa ota-onalari bilan muammoli vaziyatlari ko‘payadi.

Olimlarning kuzatishlariga qaraganda, oiladagi “qahr-g‘azab” asosidagi munosabatlar bolalarni uydan bezdiradi. Uydan bezish, oila muhitini tan olmaslik o‘smirlarda oila muhitiga nisbatan deformatsiyalashuvni keltirib chiqaradi. Natijada o‘smir oiladan tashqari ko‘cha muhitini o‘ziga ma‘qul ko‘radi. Ko‘cha muhiti esa ba‘zan kriminal mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Natijada noaxloqiy va g‘ayriqonuniy xulq-atvor muhitiga tushib qolgan o‘smirda xulq og‘ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Ota-onalarning “qahr-g‘azab” asosidagi munosabati bolalar va o‘smirlarda salbiy xarakter xislatlarining, xususan, qo‘rqoqlik, tobelik, asabiylik, hissiyotlarga beriluvchanlik va mustaqil tafakkurning sustligi kabilarning shakllanishiga olib

keladi. Qo‘rqoq, tobe o‘smirlar birovlarining qistovi, zo‘rlashi natijasida turli xil g‘ayriqonuniy guruhlariga qo‘shilib ketadilar. Ulardagi asabiylik, qo‘zg‘aluvchanlik, hissiyotlarga beriluvchanlik xususiyatlari tez-tez nizoli vaziyatlarga duch kelishiga sabab bo‘ladi. SHuningdek, ulardagi mustaqil fikrlash layoqatining sustligi nizoli vaziyatlarning chigallashuviga, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish yo‘llarini noto‘g‘ri qo‘llashga olib keladi. Natijada bunday vaziyatlarda o‘smir o‘zining yosh davri xususiyati va hayotiy tajribasizligi tufayli g‘ayriqonuniy harakatlarga qo‘l urishi mumkin.

Oilada bolaga keragidan ortiq erkinlik berish ularni o‘z bilganicha ish tutishga, qilayotgan ishining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini anglab etmaslikka olib keladi. Ota-ona nazoratidan, tergashidan chetda qolgan bola ko‘ngli tusagan ishni qilishga odatlanadi. Bunday hatti-harakatlarning noqonuniyligini anglagunicha, kech bo‘lib qoladi.

Ota-onalarning farzandlari hayoti va faoliyati bilan qiziqmasliklari, ularni nazoratsiz qoldirishlari ko‘pincha o‘smirni yomon muhitga qo‘shilib qolishiga sabab bo‘ladi. SHu sababli, ota-ona farzandlarining, ayniqsa o‘smirlik yoshi davridagi faoliyatlarini, bo‘sh vaqtlarida nimalar bilan shug‘ullanayotganliklarini doimiy ravishda nazorat qilib borishlari maqsadga muvofiqdir. Oilada ota-onalarning o‘smirlarga nisbatan e‘tiborsizliklari, tarbiya shunday bo‘lishi kerak deb qarashlari bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishini kelib chiqishiga imkon yaratadi.

Oilada ota-onalarning farzandlariga “mustaqil faoliyat yuritish” asosidagi munosabati ham ularda og‘ishning kelib chiqishiga sabab bo‘lganligi kuzatiladi¹.

Demak, oilada o‘smir-bolaga pozitiv, direktiv, avtoritar munosabatlarni me‘yorida, o‘tish davri xususitlarini hisobga olgan holda qo‘llash ular xulqida ijobiy fazilatlarning shakllanishiga olib keladi.

¹ Б.Умаров. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. Тошкент, 2008.-11--120-бетлар

O'smirlarda deviant xulq-atvor sabablari

Psixologlar o'smirlarda xulq og'ishining bir necha sabablarini ko'rsatib o'tadilar:

- qarovsizlik, boshpanasizlik;
- nosog'lom muhit;
- bolaning nazoratsizligi, o'z holiga tashlab qo'yish holatlari;
- o'smirning zararli odatlarga berilishi;
- ota-onaning jamiyat normalariga zid turmush tarzi;
- moddiy, maishiy shart-sharoitning etarli emasligi;
- ma'naviy qashshoqlik;
- kattalarning haddan ziyod qattiqqo'lligi, adolatsizlik;
- milliy qadriyatlardan uzoqlashish;
- ijtimoiy mehnat qilishdan yiroqlik;
- moddiy ahvolni yaxshilashga ehtiyoj sezmaslik;
- irsiyat va h.k.lar.

Kuzatuvlarga qaraganda o'smirlarda xulq og'ishi, jinoiy harakatlarning sodir etilishi asosan, o'qish, mehnat bilan shug'ullanmaydigan, bekorchi yoshlar o'rtasida ko'proq kuzatilmoqda. Bolalarning sport, texnika, ijodiy ishlarga etarlicha jalb qilinmayotganligining ham o'z sabablari bor:

- madaniy, ma'rifiy, ma'naviy sohalardan foydalanishning imkoniyati cheklanganligi;
- oila a'zolarining mehnatini qadrlamaslik, ularni tushunmaslik;
- ta'lim muassasasi bilan oila o'rtasida aloqaning sustligi;
- qiziqishning sustligi, ijtimoiy sust hayot tarzini xush ko'rishlik;
- mehnat qilish ko'nikmalarining yoshlikdan shakllanmaganligi;
- ta'lim-tarbiya, madaniy va ma'rifiy sohalarga nisbatan qarashlarining sayozligi;
- bolaning kelajagi haqida o'ylamasligi;
- engil turmush tarziga odatlanganlik;
- bolaning nazoratsiz qolishi va h.k.

O'smirlarda xulq og'ishi bir necha omillar bilan xarakterlanadi:

Biologik omil. Bola organizmidagi noqulay fiziologik yoki anatomik xususiyatlar, uning ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Avloddan avlodga o'tuvchi aqliy rivojlanish, eshitish va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ona qornidayoq noto'g'ri ovqatlanish, onaning kasallanishi (jismoniy va psixik jarohatlar, surunkali yuqumli kasalliklari), ichkilikbozlik, chekishga ruju qo'yishi, irsiy kasalliklarning ta'sirida bo'ladilar;

- inson organizmiga ta'sir etuvchi psixo-fiziologik og'ir tashvishlar, janjalli vaziyatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, energiyaning yangi turlari, somatik (yunon tilidan soma- tana degan ma'noni beradi ya'ni, organizmdagi psixikaga qarama-qarshi bo'lgan holat), allergik kasalliklari turlari sabab bo'ladi;

- Fiziologik (nutqda, tashqi qiyofadagi) nuqsonlar sababli atrofdagilar bilan munosabatda chekkaga chiqish, odamovilik kuzatiladi.

Psixik omil. Bola psixopatologiyasida haddan tashqari zo'riqish bilan ifodalanadi. Bu hulqiy og'ishganlik bolaning ruhiy xastalanganligi orqali vujudga keladi. Bunday bolalar turli psixologik ta'sirlarga o'ta sezgir, tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiyasiga muhtoj. Ularga nisbatan tarbiyaviy chora-tadbirlar ko'rilishi talab etiladi.

Ijtimoiy-pedagogik omillar. Oila va maktabdagi ijtimoiy tarbiyaning nuqsonlarida namoyon bo'ladi. Bola ta'lim standartlarini o'zlashtirmaganligi sababli maktab bilan aloqani uzishga harakat qiladi. O'smir yoshda maktabdan to'la bosh tortishga sabab bo'ladi.

O'smirlarda deviant hulq-atvorning oldini olishga asosiy yondashuvlar

Xulq og'ishi holatlarining uzluksiz ravishda o'sib borishi jamiyat oldiga ular bilan olib boriladigan ishlarning shakl va usullarini, texnologiyalarini ishlab chiqish vazifasini qo'ygan. Deviant va delinkvent xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashning profilaktik va rehabilitatsion usullari nazariya va amaliyotda keng tarqalgan.

Profilaktika (oldini olish) – o'smirlardagi ijtimoiy xulq og'ishganligining turli ko'rinishlariga sabab bo'luvchi sharoitlardan ogohlantirish, ularni bartaraf etishga

yo‘naltirilgan davlat, jamiyatning ijtimoiy-tibbiy va tashkiliy-tarbiyaviy chora-tadbirlarining yig‘indisidir. O‘smirlarda deviant xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan bir necha yondashuvlari mavjud.

1. Axborotli yondoshuv Ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televidenie), kino, teatr, badiiy adabiyot va boshqa san‘at asarlari orqali voyaga etmaganlarni ijtimoiy axloq normalari, ularning burch va majburiyatlari, huquqlaridan xabardor qilish.

2. Ijtimoiy-profilaktik yondoshuvning maqsadi – negativ holatlarning sabablari va sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish, neytrallashtirishdan iborat. Voyaga etmaganlar giyohvandlik moddalarini iste‘mol qilingani uchun jinoiy javogarlikka tortilishlarini, ichkilikbozlik va alkologizmning og‘ir ijtimoiy va psixonevrologik oqibatlarini anglamaydilar. Giyohvandlik har bir insonning shaxsiy ishi, faqat giyohvandlik moddalarini tarqatish jinoyat deb hisoblaydigan yoshlar ko‘p.

O‘smirlar o‘rtasidagi ichkilikbozlik, giyohvandlik profilaktikasi muammosi ijtimoiy pedagogikada juda muhim.

3. Tibbiy-biologik yondoshuv. Sog‘ligida nuqsoni bo‘lgan o‘smir-yoshlar ma‘naviy-axloqiy me‘yorlarni buzishi, xulq og‘ishini namoyon qilishi tabiiy. Ularga nisbatan tibbiy-profilaktik xarakterdagi faoliyat olib borish, ruhiy nosog‘lomlikni o‘z vaqtida aniqlash juda muhimdir. Bunday bola psixiatr mutaxassislar ko‘rigidan o‘tkazilib, shunga muvofiq tibbiy davo choralari ko‘rilishi lozim.

4. Ijtimoiy-pedagogik yondoshuvning mohiyati xulqida og‘ish holatlari kuzatilayotgan yoshlarning axloqiy-irodaviy xususiyatlarini tarbiyalashdan iborat. O‘smirda quyidagi xislatlarning shakllantirilishi ijtimoiy- pedagogning vazifasiga kiradi:

- o so‘zida turish, qilgan ishiga javobgarlik;
- o jinoyatga boshlovchi, jamiyatga zarar etkazuvchi illatlarga bo‘lgan qiziqish va harakatlarini to‘xtatish;
- o foydali mehnat bilan band qilish;

O qonuniy , puxta o‘ylab chiqilgan maqsadlarni qo‘yishga o‘rgatish.

5. Sanksiya qo‘llashning mohiyati qonunni buzgan shaxsga nisbatan jinoiy jazo choralarini qo‘llash.

Balog‘atga etmagan jinoyatchilarning yosh davri xususiyatlari

Psixologlarning fikricha, o‘smirlik davri shaxs sifatida intensiv rivojlanish davri bo‘lib, bu yoshda ma‘naviy va intellektual jihatdan o‘sish jarayoni kuchayadi. O‘smir ruhiy faoliyatida keskin o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bu yoshda organizmning mukammallashuvi va qayta shakllanish jarayoni kuchayadi. Bu yoshda bola bolalikdan o‘smirlikka, quyi rivojlanish pog‘onasidan etuklik bosqichiga o‘ta boshlaydi. Bolalik dunyosini tark etgan o‘smir hali katta bo‘lmadi, shu bois uning xulqida ayrim qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar uchraydi. O‘smirlik davri fanda xulq og‘ishi darajasiga ko‘ra “inqiroz davri” deyiladi.

Inqirozli holatlar darajasi ota-onaning ta’sirchanlik roli sust bo‘lgan yoki noto‘liq oilalarda tarbiyalangan bolalarda ancha yuqori bo‘ladi. Bunday bollar tez-tez uyga kelmaslikni, ko‘chabazorilik, daydilikni odat qiladilar. SHuning natijasida o‘smir jinoyatchilik ko‘chasiga kirib ketadi. Bu davrda o‘smir shaxsida depressivlik, agressiya, qo‘zg‘aluvchanlik, o‘z joniga qasd qilish holatlari ham kuzatilishi mumkin.

Tadqiqotchi M.I.Enikeev bu yoshga xos bo‘lgan bir qator xulq-atvor stereotiplari mavjudligini sanaydi:

- qarama-qarshi nuqtai nazar reaksiyasi – kattalarning hatti-harakatlari, gap-so‘zlariga nisbatan o‘smirning kuchli qarshiligi, e’tiborsizlik hissining paydo bo‘lishi. Bu reaksiya ko‘pincha dars qoldirish, uydan ketib qolish, spirtli ichimlik ichib maqtanish va ba’zan g‘ayriqonuniy hatti-harakatlarni amalga oshirish holatlarida ko‘rinadi;
- taqlidchanlik reaksiyasi - o‘smir ayrim kishilarga, ba’zan kinoda ko‘rgan yoki eshitgan g‘ayriijtimoiy qahramonlarga taqlid qiladi;
- salbiy taqlidchanlik yoki muayyan voqea-hodisalarga, kishilarga teskari taqlid reaksiyasi;

IV. O'SPIRINLIKNING JISMONIY TARAQQIYOTI

Ilk o'spirinlik yoshi bolalarning 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi. Bu akademik litsey va kabs –xunar kollejlari o'quvchilaridir. Bo'yning o'sishi o'spirin qizlarda 15-16 eshgacha, o'g'il bolalarda 17 –18 yoshga dovom etadi. Bu yoshda muskullar kuchi tez o'sadi. Masalan: 1b yoshli bola muskul kuchi 12 yoshli bolaga nisbatan 2 baravar ortiq bo'ladi. Jismoniy taraqqiyot asosan barchasi to'g'ri ovqatlanish rejimiga va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishiga ko'p jihatdan bog'lik. Jinsiy taraqqiyot jihatdan bu yoshdagi ko'pchilik yigit va qizlar postpubertat (tugallanuvchi) davrda bo'ladilar. Bularning jismoniy rivojlanishi katta yoshdagi odamning jismoniy rivojlanishdan kam farq qiladi. Bo'yning va organizmning notekis o'sishi va rivojlanish davri tugallanadi. hamda jismoniy rivojlanishning nisbatan birmuncha tekis davri boshlandi. O'spirinlik yoshida jismoniy sifatlar (bo'y og'irlik) nisbatan barqaror darajaga etgan bo'ladi. SHuningdek, muskul kuchi va ishchanlik qobiliyati sezilarli darajada ortadi. Ko'krak qafasining hajmi kengayadi, skelet, naychasimon suyaklar qattiqlashadi, to'qimalar va aozolarning shakllanishi va fuknsional taraqqiyoti tugallanadi. Odatda ana shu yoshda yurak va qon tomirlarning rivojlanishida o'smirlarga hos bo'lgan notekislik endi tekislashadi, qon bosimi baravarlashadi, ichki sekretiya bezlari bir meoyorda ishlay boshlaydi. Bu yoshda nerv sistemasining va xususan miya rivojlanishida o'zgarishlar maolum bo'lib qoladi. Lekin bu o'zgarishlar miya massasining ortishi hisobiga emas, balki miyaning ichki xujayralari tuzilishining murakkablashuvi hisobiga ruy beradi. Bosh miya pusti qismlarini assotsiativ to'qimalarning miqdori ko'payadi. Natijada o'qish va mehnat jarayonida katta {yarim shar) qatlamining analetik sintetik faoliyati murakkablashadi. Jinsiy etilish muddati irqiy va milliy xususiyatlarga va iqlimga bog'lik bo'lmaydi.

Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o'tish davridagi ko'proq bolalikka yaqin bo'lsa, ikkinchi o'tish davrida bo'lgan o'spirin ko'proq yoshlik davriga yaqindir va shu jixatidan

o'rganiladi, xamda tadqiq etiladi. Ilk o'spirinlik davri asosan unda mustaqil hayotning boshlanishi bilan (o'rta maktabni tamomlab litsey, kollejlarga kirishi) xarakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinlik shaxsiga, uni o'z –o'zini anglashiga to'liq taosir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki snda ishtirok etadilar.

Uning nafaqat mustaqilligi ortishi bilan bir qatorda kattalarning unga munosabatlari ham o'zgaradi. Kattalar o'smirlarga ko'proq bola deb qarasalar, ilk o'spirin yoshdagilarga katta odamdek munosabatda bo'ladilar. Ilk o'spirinlar hayotda o'z o'rnini topishga nisbatan intilish anglagan holatida bo'la boshlaydilar. U o'z hayotiy rejalarini amalga oshirish uchun xarakat qila boshlaydi va maolam bir kasbni egalay bo'la boshlaydi yoki shu soha bo'yicha akademik litseylarda o'qishini davom ettiradi. O'spirinlar tanlagan sohalari yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilari keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba etishmayotganligini va buning uchun ko'proq o'qish va o'rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar.

O'spirin bola bilan katta odam o'rtasidagi oraliq mavqeni egallaydi. Bolaning jamiyatda tutgan o'rni kattalarga bog'liqdir, kattalar ularga hayot faoliyatining asosiy mazmun va yo'nalishini belgilab beradilar. Bolaning bajaradigan roli kattalar rolidan sifat jixadan farq qiladi. Hayot faoliyati murakkablashgan sari o'spirinlarda ijtimoiy rollar kengligi faqat miqdor tomondangina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o'zgarib boradi. M: 16 yoshda pasport oladi. 18 yoshidan faol saylash xuquqiga va oila qurish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'spirin jinoiy ishlar uchun javobgar bo'ladi. Baozi o'spirinlar bu yoshdan boshlab ishlay ham boshlaydilar. Kasb tanlash xaqida uylay boshlaydilar. Lekin shunga qaramay o'spirinlarda kattalarga qaramlik xususiyatlari saqlanib qoladi

O'spirinlar (16 –18 yoshlar) o'zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar jismoniy, ham aqliy jixatdan voyaga etgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o'z –o'zini boshqarishi kabi etuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. SHu tufayli ular vazmin, muloxazali

bo'ladilar, katta yoshdagilarga hurmat –ehtimom bilan qaraydilar. Ular uzoqni kuzlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, ota –onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O'quv faolityai o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi, lekin o'qishga nisbatan faqat o'smirlik yoshiga qaraganda o'spirinlikda bir muncha yuqoriroq bo'ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o'z –o'zini anglash bilan motivlar bu davrda etakchi o'rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to'laonli aozosi bo'lishga intilish insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu davrda o'spirinlarning kelgusi hayotiy va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko'ra fanlarga nisbatan qiziqishlari ham o'zgaradi va bu o'z navbatida o'spirinning fanlarga, hamda shu fan o'qituvchilariga nisbatan munosabat ham o'zgaradi. O'spirinlik davrida o'z ko'zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi o'ringa ko'tariladi. O'smirlar o'zlarining o'qishga bo'lgan munosabatlari va ularning o'qish –o'rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar. O'spirinlik yoshida boshdan kechiriladigan his tuyg'ularning boyligi, hilma –hilligi bilan, hayotning turli tomonlariga emotsional munosabatda bo'lish bilan ajralib turadi. Ahloqiy va ijtimoiy siyosiy hislarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular odatda muayyan ahloqiy talablar bilan o'zaro to'g'ri munosabatda bo'ladilar. Boshdan kechirgan his tuyg'ularni anglab etish mahorati ham rivojlanadi. O'spirinlik yoshida o'quvchilarda o'rtoqlik hissining rivoj topishi xarakterlidir. Rossiya psixologlari I.V.Straxov bilan A.L.SHnirman tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'spirinlik yoshidagi do'stlik o'smirlik yoshidagi do'stlikdan baozi bir xususiyatlari bilan farq qiladi.

1) O'spirinlarda do'stlik motivlari ancha chuqurroq bo'ladi. Bularda-oshkoralik, o'zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, birgalikda doimiy yordam ko'rsatish, kamchiliklarni tugatish, do'stiga erdam berish, o'zaro xurmat, bir-birini tushunish va h.o.

2)Do'stlik hislari ancha sermazmun bo'lib, qiziqishlar va faoliyatning juda keng doirasini qamrab oladi.

3) Do'stlik ancha emotsional bo'ladi yaoni do'sti kechirayotgan hislarga javob bera olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

O'spirinlik yoshidagi do'stlik ko'pincha butun umr buyi davom etadi. O'rtoklik munosabatlari kollektivni jinslashtirishga yordam beradi, uning hayotiy faoliyatini oshiradi. YOningda o'rtog'ing borligini his qilishning o'ziyoq qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. O'spirinlar do'stlik, samimiylilik emotsional sofdillik kabi hislatlarni birinchi o'ringa qo'yishadi. Do'stlar bir-birlari bilan yuraklarini bo'shatadilar. Do'stlarga samimiy mexribonlik shaxsining reflektivlik darajasiga, hamda uning emotsional xayot xususiyatlariga bog'liqdir. O'spirin hamma vaqt rostguy, samimiy bo'lishni istaydi.

O'spirinlik yoshida alohida bir his-sevgi paydo bo'ladi. Bu maktab o'quvchisining emotsional hayotida mutlaqo yangi bir holat bo'lib, hisoblanadi. O'spirinlik sevgisi odatda sof, pokiza, beg'ubor, hilma-hil kechinmalarga boy, muloyimlik, xayolga berishish va samimiyat belgilariga ega bo'ladi. Yigit va qizlarimizning sevgini boshdan kechirishida bir-birlarini hurmat qilish, do'stlik, o'zaro yordam, bir~birini tushunish kabi hislatlar xarakterli bo'lib, ular bir-birlaridagi yuksak maonaviy sifatlarni qadrlaydilar. Yigit va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'spirinlik yoshida faollashgan bo'ladi. O'rtoqlarga munosabatlar doirasi kengayadi. Ayniqsa qizlarda aralash do'stlik ehtiyojlari kengayadi. Dastlab bolalarga xos sodda sevishtlik 16-17 yoshda birinchi jiddiy moyillik va qattiq sevgi ehtiyojlari ko'rina boshlaydi. Ikki jins o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'spirinlarda sevgi hissining bir qancha holatlarga bog'liq. Birinchidan –jinsiy etilish, ikkinchidan – ishonadigan, suyanadigan va har qanday nozik masalalar bo'yicha gaplashish mumkin bo'lgan do'stga ehtiyoj, uchinchidan –bu tabiiy insoniy ehtiyoj hisoblanib inson ko'pincha o'zini yolg'iz his qilganida kuchli emotsional bog'liqlikka intiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha bunday tuyg'u kuchaygan shaklda birinchi bora asosan ilk o'spirinlik davrida yuzaga keladi. O'spirinlar tasavvuridagi ideal kimnidir yoqtirishiga, sevishtiga turtki bo'ladi. O'spirinlarning ideal obrazlari bazan real bo'lmaydi, yaoni ular hech kimni «unga» o'xshatmaydilar.

V. O'SPIRINLIK DAVRIDA AQLIY RIVOJLANISH

YUqori sinf o'quvchilarning bilish jarayonlari turli hil nuqtai nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo'yicha har tomonlama o'ylagan o'z fikrini berishga yordam bera oladi. Bu yoshdagi o'spirinlar atrofdagi turli voqea –xodisalardagi xaqiqatni bilishga intiladi. Ularning tayyor echimlar, tayyor ma'lumotlar emas, balki shu echim va ma'lumotlarni o'zlari muloxaza yurgizib qilbirish jarayonining o'zi ko'proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo'yicha baxs va munozaralar yuritishga va ularning fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Lekin bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib o'spirinlar to'la ravishda mantiqiy tafakkur eta oladilar, nazariy fikr eritib o'zlarini –o'zlari tahlil eta oladilar. Ular endi bemalol ahloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda baxslasha olib o'z munosabatlarini bildiradi oladilar. O'spirinlik davrida bolalar juda ko'p ilmiy tushinchalarni o'zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni engishda foydalana oladilar. Bolalarda anglash va o'z –o'zini anglash sezilarli darajada o'sadi. O'spirinning o'z –o'zini anglashi o'quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarini o'zgarishida o'z aksini topadi. Bu davrga kelib bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi.

O'spirinlik yoshi o'qish, mehnat, muloqot singari egakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarining rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi faol ravishda kechadi. Lekin bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo'ladi. SHuningdek, o'z –o'zini boshqarish ham o'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'spirinning o'quv mashg'ulotiga munosabati o'z xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o'quvchilarning ta'lim jarayoniga munosabatidan tubdan farq qiladi. O'quv rejasi va dasturning murakkablashuvi, yangi fan va

mavzularning kiritilishi o'zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqazo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning o'qishga munosabati ham o'zgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bo'la boshlaydilar. O'spirin o'quvchilarning o'quv fanlariga munosabatlari quyidagi holatlarga bog'liqdir:

1. Fanning dunyoqarashdagi roliga.
2. Fanning bilishdagi ahamiyatiga.
3. Fanning ijtimoiy ahamiyatiga.
4. Fanning amaliy ahamiyatiga.
5. Fanning o'zlashtirish darajasiga.
6. Fanning o'zlashtirish uslubiyotiga

O'spirinlik davrida bilishga oid qiziqish ko'lami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazolarga qiziqish kuchayadi. O'spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik, yanada takomillashib boradi, mantiqiy xotirasi, esda olib qolishining oqilona yo'l, vositalari esa taolim jarayonida etakchi vazifani ado eta boshlaydi. Mazkur pallada o'spirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyat kasb eta boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda o'quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi. O'spirin u yoki bu hildagi, turli janrdagi adabiy asarlarni o'qish, tushunish orqali mustaqil fikr yuritish, muloxaza qilish va munozaraga kirishishga o'rganib boradi. O'spirinlik tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi kabilar kiradi. Tafakkurning mazmundorligi deganda o'spirin ongida tevarakatdagi voqeilik to'g'risida qancha miqdorda muloxazalar, muhokamalar va tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda esa moddiy dunyodagi narsa va xodisalarning asosiy qonunlari, xossalari sifatleri, ularning o'zaro bog'lanish va munosabatlari o'spirinning fikrlash faoliyatida to'liq aks etganligi tushuniladi. Tafakkurning kengligi o'zining mazmundorligi va chuqurligi sifatleri bilan muntazam bog'liq bo'ladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda o'spirinning shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga yangi vazifalar quya

bilishi, bu vazifalarni hech kimning yordamisiz, oqilona usullar bilan mustaqil hal qilish o'quvchanligini tushunish kerak. Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Ayrim qiz va yigitlar aqliy rivojlanishdan orkada bo'lib, o'quv materiallarini o'zlashtirishga ulgurmaydilar yoki qiynaladilar, ular tevarak atrofdagi voqelikni bilib olish maqsadida umumlashtiruvchi tushunchalardan foydalanigani bilmaydilar, chunki bu tushunchalar, xulosalar, fikrlar, hodisa va faktlarni tadqiq qilishni yodlab oladilar. Bolalarni aqliy jixatdan rivojlantirish uchun ularning o'qish faoliyatlarini faollashtirish va ularning bilimlarini ongli ravishda o'stirish kerak. Taolimda onglilik o'quvchining yuqori darajasidagi faolligi bilan taominlanadi. Bilimlarini faol faoliyat ko'rsatib o'zlashtirganda, o'quvchilar bu bilimlarni yaxshi tushunibgina qolmay, ularni amaliy faoliyatda qo'llashga ham o'rganadilar. G.E.Zalesskiy o'quvchilarga ijtimoiy masalalar-iqtisodiy hamda ijtimoiy faktlar va xodisalarni mustaqil ravishda ilmiy tahlil qilish va ularga baxo berish usullarni maxsus o'rgatish juda ham muxim va zarur ekanligini tadqiqot asosida ko'rsatib bergan. Bu o'rinda ham asosan o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini faollashtirishga, tug'ri rahbarlik qilgan holda tanishish lozim. O'spirinlarning aqliy jixatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir. O'spirin adabiyot asrlarni o'qish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, muloxaza yuritish va munozaralarga o'rgana boradi. Unda asta sekin tabiat va jamiyat xaqida o'zining nuqtai nazari, eotikodi, qarashi shakllanadi. Maolumki, shaxsning ana shu fazilatlari unda fikrlash, mustaqil uylash tug'ri xukm va xulosalar chikarish, qatoiy qarorga kela olishi natijasidir. O'spirinlarning adabiy asarni baxolashi, u haqda shaxsiy fikrlarni bildirishi, muammoning tomonlari yuzasidan baxslashuvi insoniy hielatlarning muayyan darajada ishtirok etishni aql tanqidligining aynan o'zginasidir. Turmushda uchraydigan noo'rin tanqidiylik esa o'spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O'qituvchining asasiy vazifasi o'quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni xaqqoniylik darajasiga ko'tarishdan, ularga voqelikka odilona oqilona tanqidiy nuqtai nazardan qarashni o'rgatishdan iborat. o'spirinlarda

moddiy dunyo tugʻrisida shaxsiy fikrlar, muloxazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Aql tanqidiyligining rivojlanishi oʻquv materiallarini puxta oʻzlashtirishga, taolim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash koʻnikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. Oʻrganilayotgan xodisa tugʻrisida xukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlanadi. Oʻspirin qobiliyati va isteododi taolim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Qobiliyatning oʻsishi bilimlar, koʻnikmalar, malakalarning sifatiga bogʻlik boʻlib, shaxsning kamol topish jarayoniga qoʻshilib ketadi. Demak maktabda oʻtiladigan darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashgʻulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari oʻspirinlar oʻzlashtirish uchun zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi. Bularning barchasi ilmiy –nazariy tafakkurning shakllanishiga, tevarak atrofdagi voqelikning umumiy qonuniyatlarini oʻsishiga aqliy imkoniyatlarini vujudga kelishiga tabiat va jamiyat rivojlanishining qonunlarini anglashga muhim shart –sharoit yaratadi. YUqoridagilardan koʻrinib turibdiki oʻsmirlik yoshida oʻquvchilar aqliy faoliyatning omillar va usullari bilan qurollangan boʻladilar.

SHunga koʻra har kim qobiliyatiga yarasha kasb-hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muxim hissa qoʻshgan boʻladi. Oʻspirinlarni kasbga yoʻnaltirishda ularning his-tuygʻu va irodalarini hisobga olishning ham muxim ahamiyati bor. CHunki oʻquvchilarning his-tuygʻusi, kayfiyati, xayajonli holatlarda eotiborga olinmasa, koʻzlangan maqsadga erishib boʻlmaydi. Oʻspirinlar u yoki bu kasbni oʻz ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dalillik, qatoylik, oʻzini tuta bilish, chidamlilik, sabr-toqat kabi umuminsoniy hislatlarga ega boʻlishlari kerak. Mehnat qilishda muqaddas burchni bajarish istagi, maqsadning aniqligi, xunar oʻrganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarining shakllanishiga ijobiy taosir koʻrsatadi. Oʻspirinlar aqliy rivolanishda tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natijasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz hech qanday ishni toʻgʻri rejalashtirish mumkin emas.

O'spirinda tasavvur qila olish layoqati yaxshi rivojlangan bo'lsagina, uo'z hayotidagi idealni tasavvur eta oladi. Va shunga ko'ra uzoq va yaqin rejalarni tuzadi.

Xozirgi yigit va qizlarni 30 –40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda ularning umumiy saviyalari naqadar o'sganligini ko'rish mumkin. Intelektual qiziqishlar doirasi keng va ko'pqirralidir. Radio, televidenie, ilmiy –ommabop asarlar, kinofilmlar, fan vatexnika taraqqiyotida muhim rol yo'namoqda. Lekin o'spirinlar qiziqishlari aksariyat hollarda o'z tanlagan kasb va yo'nalish shuningdek, hayotiy rejalarga asoslangan bo'ladi. O'spirinlik yoshiga kelib yigit, qizlarning dunyoqarashlari yuksak pog'onaga ko'tarila boshlaydi. Bu esa o'spirinning tashqi olamni tushunishiga, baholashiga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. o'spirinlar dunyoqarashi endi ularning ilmiy, falsafiy, siyosiy va diniy qasharlari tizimidan iboratdir.

Hayotda turli hil kasblar mavjud. Bir odam bir necha hil kasblarni egallashi mumkin, lekin shu bilan birga har bir kasb shu qadar murakkabki inson o'z hayotini asosan ana shu bir kasbga bag'ishlashi mumkin. SHu asosda kasb tanlash muammosi vujudga keladi. Aslida kasb tanlash barcha davridan boshlab, bolalarning rolli o'yinlarida ko'rinadi. Demak bola o'yin orqali to'la kasblar va shu faoliyat bilan tanisha boshlaydi. Masalan: «magazin» yoki «bozor» o'yini orqali bola ham «sotuvchi» ham «xaridor» bo'la oladi, «pul» va «tovar» bilan muomila qilishni o'rganadi. Bu bosqichni kasb tanlashga tayyorgarlikni boshlanish bosqichi deb atash mumkin. Keyingi yosh davrlarda bu tayyorgarlik turli faoliyatlarda va turlicha ko'rinishlarda davom etadi. «Men kim bo'laman?» savoliga to'qnash keladi. Maolum bir kasbda faoliyat ko'rsatishni boshlayotgan o'spirin unga intellektual, ijtimoiy –psixologik hamda ahloqiy jixatdan tayyor bo'lishi kerak.

O'smirlik davrining oxirlari va o'spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko'nikma va malakalaridan ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to'g'ridan –to'g'ri bog'liq. Tajribalarning ko'rsatishicha, agar o'spirinlik davriga kelib unda kelgusida yaxshi kasbiy layoqatlarni yuzaga kelishiga umid bog'lash qiyin.misol uchun bolalik paytlarida

texnika bilan muomila qila olmagan, slesarlik asbob –uskunalaridan foydalana olmagan, o‘z qo‘li bilan manidir bajara olmagan bola talantli injener konstruktor bo‘lib etishi ancha mushkul yoki litsey va kollejlarda matematik, lingvistik, badiy –ijodiy layoqatlarini ko‘rsata olmagan bola katta bo‘lganida xech qachon kuchli matematik, filolog yoki musavir bo‘lib etisha olmaydi.

Har qanday kasbiy ko‘nikma va malakalarning o‘sishi avvalo o‘spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. SHuning uchun ham bu davrdagi o‘spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida eotibor berish lozim.

Bu yoshdagi bolalarga muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham juda muxim, lekin u etakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo‘nalishlari bo‘yicha mashg‘ul bo‘lmagan o‘spirinlargina ko‘proq tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lishiga ehtiyoj sezadilar. Bu yoshdagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shug‘ullana oladilar. Ilk o‘spirinlik davrini kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning shaklanishi uchun senzetiv davr deb hisoblash mumkin. O‘zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto‘g‘ri etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o‘spirinlar o‘z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan nerv sistemasi tipi, analizatorlar xususiyati emotsional –idoraviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

Ilk o‘spirinlik davridagi yoshlarning shaxsiy xususiyatlari

O‘spirinlarni hali to‘la katta deb hisoblab bo‘lmaydi. CHunki ularning shaxsiy xususiyatlari hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida berayotgan baholarida, hayotga va o‘z kelajaklari munosabatlarida ko‘zga tashlanadi. Ko‘pchilik o‘spirinlar maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan maosuliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o‘spirinning ahloqan o‘z –o‘zini anglashi shuningdek, ahloqning yangi bosqichiga o‘tishi bilan xarakterlanadi. Intelekti yaxshi rivojlangan o‘spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushina oladilar va ularni muxokama eta oladilar. O‘spirinlar juda ko‘p muammoli savollarga javob o‘ylaydilar. Ularning diqqatini ko‘proq ahloqiy

masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ahloqiy masalalarni echish manbai –bu ular uchun o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasida qidiradilar. O'spirin yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq kattta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy – ommabop badiiy, publitsistik adabiyotlar, sanoat asarlari, matbuot, radio, televidenie bo'lib hisoblanadi. Bugungi o'spirinlarga hayotga nisbatan xushyor, aqliy –amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik hos. Ulart haqqoniy bo'lish tushunchasiga ham real tarzda yondoshmoqdalar. Masalan o'rgan yillardek «xaqqoniylik bu hammaga bir hil emas, balki har kimdan imkoniyatiga qarab va hammaga ishiga yoki inson manfaatalriga qo'shgan hissasiga qarab belgilanadi» deb tushunadilar va talqin etadilar. Maktabni tugallash vaqtiga kelib juda ko'p o'smirlar ahloqiy jixatdan shakillangan va maolum ahloq normalari qatoylashgan xususiyatlarga ega bo'ladilar.

O'spirinlarda ahloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy , madaniy, diniy va boshqa soxalar bo'yicha maolum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, xaqiqat va noqonuniylik, ahloqiylik va ahloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'siprinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabat hos bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvu yoshlaridir.

O'spirinlar ongli ravishda egallangan ahloq normalari asosida o'z xatti-xarakatlarini yo'lga solishiga intiladilar. Bu esa, avvalo o'spirining o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. O'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: Birinchidan bolada tashqi olamdagi predmet taosiridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi. Ikkinchidan o'zining shaxsiy "Men"ligini aktiv faoliyati asosida anglashi. Uchinchidan o'zining psixik xususiyati va hislatlarini anglashi. Turtinchidan ijtimoiy, ahloqiy o'z-o'ziga baho berishning maolum sistemasini anglashi. Mana shu elementlarni barchasi bir-biri bilan

funksional va genetik bog'lagandir. Lekin ularni hammasi sizga ma'lumki, bir vaqtning o'zida shakllanmaydi. Bolaning «men»ligini anglashi taxminan 3 yoshda paydo bo'ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, mendan va h.o. o'zining psixik sifatlarini anglash va o'z-o'ziga baho berish o'spirinlik yoshida, borgan sari ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O'spirinlar har joyda o'zini ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan o'smirlik vaqtidayoq, o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini kuzata boshlaydilar. YAoni o'zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo'yining pastligi yoki aksinchasi semizlik, xusn yuzdagi xusnbuzarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob chekadilar. Kech etiladigan ug'il va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o'z obrazi—bu o'pirinlikning o'zini anglashi ancha muxim komponent bo'lib hisoblanadi.

O'spirinlikda o'z shaxsiy hislatlariga baho berish kuchayadi. O'spirin ham o'smir singari o'z qimmatini nimalarni qilishga arzishi va nimalarga qodir ekanligini benihoya bilgisi keladi. O'ziga baho berish 2 usulda bo'ladi. 1. Kishi o'zi qo'lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baholaydi. Masalan: Bola qiyin vaziyatda o'zini yukotmaydi yoki yosh bolani yongindan qutkazdi -"men qo'rqq emasman" deydi. Ma'lum qiyin topshiriqni bajardi. «Men kobiliyatliman»-deydi. Ahloqqa oid bunday xatti—xarakatlar, o'spirinning o'z katoiyiligini sinashi hamdir.

2. Ijtimoiy taqqoslash, yaoni o'zi xaqidagi boshqa ishlarni fikrlarni solishtirishdan iboratdir. Masalan: o'quvchilar tomonidan "mardlik" deb ma'qullangan xatti-xarakatni o'qituvchi "qalbaki o'rtoqlik" deb aytadi. Bunda bolalar o'z xatti—xarakatlari to'g'sida uylab, bosh qotira boshlaydilar. SHaxsiy "men" obrazi, juda murakkabdir. Xatto kattalarning o'zini anglashi qarama qarshiliklardan holi emas. O'spirinlarda yanada kuchliroq bo'ladi.

XULOSA

O'spirin o'quvchining o'smirlik davridagi boladan o'zgacharoq yana bir xususiyati—bu murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissini anglash, o'z qadr-qimmatini eozozlash, sezish va faxmlashga kuproq moyilligidir. O'spirin o'quvchida o'z-o'zini anglash negizida o'z-o'zini tarbiyalash istagi tug'iladi. Natijada unda o'z-o'zini tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiiq qilib ko'rish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'spirin o'quvchisi ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barxam berish, ijobiy hislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki voyaga etgan kishilarga xos ko'p qirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilar o'zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o'quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilatlarini va hislatlarini hosil qilishga xarakat qiladilar; o'z-o'zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit maonaviy–ruxiy qiyofani shakllantirishga intiladilar.

O'spirin o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'quv muassasa jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy taosiri doirasida bo'lmog'i shart. Toki o'z-o'zini tarbiyalashning takomillashtirish jamoada munosib o'rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mehnatga jalb etish ishiga xizmat qilsin. O'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri izga solib yuborish uchun uyg'un birlikni tashkil etgan tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi tarzida taosir o'tkazish jamoa majburiyati, o'zaro yordam va nazorat qilish, o'zaro baholash va tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy turmushda uchraydigan baozi bir yaramas yurish-turish ko'rinishlariga, illatlariga, sarqitlariga qaqshatkich zarba berish, ularning taosiridan yigit va qizlarning asrash, yot tashviqot moxiyatiga qarshi kurash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir.

O'spirinlarda balog'atga etganlik tuyg'usi takomillashib borib, o'z-o'zini qaror toptirish, o'z maonaviy qiyofasini ifodalash tuyg'usiga o'sib o'tadi. Bu narsa ularning aloxida shaxs ekanligini tan olishga intilishida o'z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo'yish, murakkab tasviriy

sanoatga, musiqaga, kasb-xunarga, tabiatga maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga xarakat qiladilar. O'quv va mehnat jamoalari taosirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, halollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi, xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqqoqlik, g'ayirlik singari illatlarning barxam topishi tezlashadi.

O'spirinlar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarini roli aloxida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabuskorlik, mustaqillik, qatoyiatlik, masouliyatlik, o'z xarakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlari barqaror xususiyat kasb etib boradi. O'spirin yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok etishi orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon buladi. O'zining kimligi, qandayligi, qobiliyatlari, o'zini nimaga xurmat qilishini aniqlashga intiladirlar. Do'st va dushmanlari kimligi, o'z istaklari, o'zini va tevarak-atrofni, olamni yaxshi bilishi uchun nima qilish kerakligini anglashga xarakat qiladi. Maolumki o'spirinlarning hamma savollari anglangan bo'lmaydi. Baozan o'spirinlar o'zlaridan hech qanoatlanmaydigan, o'z oldilariga xaddan tashqari ko'p vazifalar qo'yadigan, lekin uning uddasidan chiqa olmaydigan bo'ladi. Mana bulardan ko'rinib turibdiki, o'spirinlar o'z-o'zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini o'zida aks ettira boradi. Bu esa o'spirinlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

O'z-o'zini xurmatlash va uning xususiyatlari quyidagilardan iborat. Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaxsning erta o'spirinlikdagi eng muxim hislatlaridan biri o'z-o'zini xurmatlash, o'z-o'ziga baho berish hamda o'zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O'spirinlar o'zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash masalalarida bir butun maonaviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta axamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Bekmirzayev N. Notqlik san'ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008.
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
5. Основы педагогического мастерства / Под ред. А.Зыузина. – Москва: Просвещение, 1989.
6. Sultonova G.A. Pedagogika / O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
7. Tarbiyaviy ishlar metodikasi / Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. L.I.Ruvinskiy tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
8. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1993.
9. Holiqov A. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2010.
10. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2009.
11. Djumaeva S. Ijtimoiy va pedagogik nizolar: ularning mohiyati va bartaraf etish yo'llari / Metodik qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011 yil.
12. <http://dic.academic.ru/dic.nsf/socio/4789>.
13. http://mirslovarei.com/content_eco/pedagogicheskaja-kultura-32491.html.
14. <http://oblasti-zhizni.ru/professionalnye-i-kommunikativnye-navyki-v-chem-razlichie>.